ORTIQCHA VAZNGA EGA BEMORLARDA SURUNKALI VIRUSLI GEPATIT S XAVF OMILLARI VA KASALLIK KECHISHIGA TA'SIRI

Yuldashov J.A.
Urganch davlat tibbiyot instituti Oilaviy shifokor tayyorlash kafedrasi PhD, dotsent
Matrasulova D.M.
Urganch davlat tibbiyot instituti Oilaviy shifokor tayyorlash kafedrasi assistenti
Quramboev B.Sh.
Urganch davlat tibbiyot instituti magistr
Jumaniyazov A.A.
Urganch davlat tibbiyot instituti magistr

Mavzuning dolzarbligi: Butun dunyo semizlikka qarshi kurash federasiya (WOR) hisobot ma'ruzasida keltirilishicha 2030 yilda yer shari aholisining 51 % (4 mlrddan ziyod) ortiqcha tana vazni yoki semizlikdan aziyat chekadi. Bu kasallik bilan zararlanish jihatdan eng yuqori ko'rsatkich AQSh da qayd qilingan bo'lib, aholining 36,2 % ida, Iordaniya aholisining 35,5%, Saudiya Arabistonida esa 35,4% ni tashkil etadi. Jahon miqyosida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, gepatotrop viruslar bilan kasallanish surunkali jigar kasalliklarining asosiy sabablaridan biri bo'lib, bu eng dolzarb tibbiy va ijtimoiy salomatlik muammosiga aylanib kelmoqda.

Tadqiqot ishining maqsadi: Abdominal semizlik va surunkali virusli gepatit S mavjud bo'lgan bemorlarda fibroz rivojlanishiga olib keluvchi xavf omillarini o'rganish va uning kasallik kechishiga ta'sirini baholash;

Material va usullar. Xorazm viloyat yuqumli kasalliklar kasalxonasida surunkali virusli gepatit S tashxisi bilan davolangan 126 nafar bemor jalb qilingan. Bemorlar qiyosiy va asosiy guruhlarga bo'lingan. Qiyosiy guruhni 34 nafar SVGS normal tana vaznidagi abdominal semizlik mavjud bo'lmagan (metabolik sog'lom) va asosiy guruhni esa 92 nafar SVGS va abdominal semizlik mavjud kechgan bemorlar tashkil etdi.

Natijalar va ularning tahlili. Tadqiqotga jalb qilingan bemorlar orasida erkaklar 61 ta (52,6%) va ayollar 55 (47,4%) nafarni tashkil etib, bemorlar 2 guruhga bo'lingan. Birinchi guruh 46 nafar surunkali virusli gepatit S bilan og'rigan, birlamchi tashxis qo'yilgan bemorlardan iborat bo'lib, o'rtacha yosh 47±1,2 yoshni tashkil etdi. Ikkinchi guruh surunkali virusli gepatit S virusga qarshi terapiya qabul qilayotgan 70 nafar bemordan iborat bo'lib, o'rtacha yosh 50,1±1,7 ni va kasallik davomiyligi 6,7±0.7 yilni tashkil etdi. Ikkinchi guruhdagi bemorlar gepatit S virusiga qarshi kombinasiyalangan virusga qarshi terapiya qabul qilganlar. Virusga qarshi terapiya

maqsadida “uchlik terapiya” (proteaza ingibitori+ interferon +ribavarin) tavsiya etilgan.

Tadqiqotga jalb qilingan bemorlarda 1 guruhdagi bemorlarda TVI(tana vazni indeksi) 82,7 %, 2 guruhda 85%ni, VS(viseral semizlik) ikkala guruhda 100% bemorlarda, nahordagi glyukoza miqdori 1-guruhda 38,4%ni, 2 guruhda 47,1 %ni, insulinga rezistentlik 1-gurhda 41,3%ni, 2-guruhda 49,1%, giperxolesterinemiya 1-guruhda 44,7%ni, 2-guruhda 44,7% ni tashkil qilgan.

Xulosalar:

1. Fibrozlanish jarayoni nafaqat virus va uning xususiyatlariga balkim, fibrozni kuchaytiruvchi boshqa xavf omillariga ham bog‘liq bo‘ladi. Shunday xavf omillaridan biri bu metabolik sindrom, jumladan ortiqcha tana vazni yoki semizlik hisoblanadi.
2. SVGS bilan og‘rigan abdominal semizligi bo‘lgan bemorlarda fibroz rivojlanish darajasi visseral semizlik indeksi me'yorda bo‘lganlarga nisbatan 1,18 marta yuqori. Fibroz darajalari virusga qarshi terapiya olayotgan bemorlarda birlamchi tashxislangan bemorlarga nisbatan yuqoriroq bo‘lib, yaqqol namoyon bo‘lgan fibroz (F3-4) 3,1 marta ko‘proq kuzatildi.

